

Kredit shartnomasi

(namunaviy shakl)

_____ sh.

«_kun_» (____oy____) 20__ yil

Davlat-Aksiyadorlik Tijorat “Asaka” bank (OAJ) (keyingi o‘rinlarda “Bank”) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ro‘yxatga olingan Nizom hamda Bankning Bosh ofisi tomonidan _____ oy, kun, yil _____ № _____ sonli ishonchnomasi asosida ish olib boruvchi - **Bankning _____ (filial ko‘rsatiladi) boshqaruvchisi (F.i.sh ko‘rsatiladi)** bir tomondan va “**Ho‘jalik sub’ekti yoki tadbirkorning nomi ko‘rsatiladi**” (keyingi o‘rinlarda “**Qarz oluvchi**”) korxonasi nizomi yoki xususiy tadbirkorning guvohnomasi asosida ish olib boruvchi (vakolatli shaxsning f.i.sh ko‘rsatiladi) ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagicha tuzdilar:

1. Bank majburiyatlari

- 1.1. Qarz oluvchiga mazkur shartnomada ko‘zda tutilgan shartlarda va muddatlarda Bankning mablag‘lari xisobidan ____ (kredit muddati ko‘rsatiladi)_____ muddatga ____ (miqdori ko‘rsatiladi)_____ so‘m miqdorida _____ (maqsadi to‘liq ko‘rsatiladi) ____ uchun kredit ajratiladi.
- 1.2. Olingan kreditning hisobini yuritish uchun qarz oluvchiga aloxida ssuda hisob varag‘i ochiladi.
- 1.3. Ajratilgan kredit mablag‘i qarz oluvchining aloxida ssuda hisob varag‘iga mazkur shartnoma kuchga kirgandan so‘ng 3 bank ish kunida o‘tkaziladi. Kredit o‘z vaqtida berilmagan taqdirda, Bank qarz oluvchiga kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,01% miqdorida penya to‘laydi.
- 1.4. Bank kreditni muddatidan oldin undirish xolatlari va sabablari tug‘risida Qarz oluvchini xabar qilib turish.
- 1.5. Bank qarz oluvchiga berilgan kredit uchun har kuni foiz xisoblash va xisoblangan foizlarni so‘ndirish, ammo har oyning 30 sanasidan kechikmagan holda
- 1.6. Markaziy Bank, Respublika Hukumati qarorlariga ko‘ra kreditlash va hisob kitob masalalariga doir me‘yoriy hujjatlarga kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida Qarz oluvchini xabar qilib borish.
- 1.7. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan ro‘yhatga olingan №907 sonli “Tijorat banklari tomonidan fermer xo‘jaliklarini, shuningdek kichik biznes sube‘ktlarini milliy valyutada kreditlash” tartibi va bankning amaldagi kredit siyosati shuningdek bankning kreditlash masalalariga doir ichki normativ hujjatlari asosida kredit ajratish.
- 1.8. Qarz oluvchi to‘lov hujjatlarini Bankka taqdim qilingan kuni bank krediti xisobidan ochilgan kredit liniyasi doirasida to‘lovlarni amalga oshirish.

2. Qarz oluvchi majburiyatlari.

- 2.1. Kreditdan ushbu shartnomada ko‘zda tutilgan maqsadlarda foydalanish.
- 2.2. Kreditdan foydalanish jarayonida kreditlashning asosiy prinsiplari yani “muddatlilik, qaytarimlilik, maqsadlilik, to‘lanishlik, ta‘minlanganlik kabilarga rioya etish.
- 2.3. Kredit _____ ta‘minoti _____ sifatida: _____ taqdim qilish.
- 2.4. Bank garovga olgan moddiy boyliklarni sug‘urta o‘rganlarida sug‘urtalash hamda uni adliya o‘rganlarida notarial tasdiqlash.
- 2.5. Kredit qaytarish muddati: _____ so‘m kredit mablag‘lari kreditni qaytarish grafigiga va muddatli majburiyatnomaga asosan _____ (muddat aniq ko‘rsatilishi lozim) muddatgacha to‘liq qaytarish. Ushbu muddatli majburiyatnomalar va kreditni qaytarish grafigi mazkur kredit shartnomasining ajralmas qismi xisoblanadi.
- 2.6. Berilgan kredit uchun foydalanilgan qismiga yillik _____ ustama foiz miqdorida, har kuni xisoblanib boroladigan foizlarni to‘lash. Kreditni qaytarish muddati buzilganda (muddati o‘tgan kreditlar bo‘yicha) foiz stavkasi _____ foiz miqdorida oshiriladi.

- 2.7. Bank tomonidan talab qilingan kerakli hujjatlarni taqdim qilish. Shuningdek, Bank xodimlariga aniq maqsadli tekshiruvlar o'tkazish uchun ruxsat etish, ularning talabiga ko'ra dastlabki xisob va buxgalteriya hujjatlarini ko'rsatish, shuningdek kredit hisobidan sotib olingan tovar-moddiy boyliklar but saqlanishini tekshirish.
- 2.8. Qarz oluvchini moliyaviy axvoliga ta'sir ko'rsatadigan bo'lajak tashkiliy huquqiy shakl o'zgarishlari yoki boshqa qayta tashkil etish ishlari to'g'risida Bankka oldindan habar berish.
- 2.9. Qarz oluvchi qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan taqdirda, kreditni qaytarish muddati shartnomada qanday belgilanganligidan qa'tiy nazar kredit bo'yicha qarzni va uning foizlarini zudlik bilan to'lash.
- 2.10. Aniq maqsadli resurslardan o'z vaqtida foydalanilmagani uchun Bankka u vakillik xisob varag'iga mablag' o'tkazgan vaqtdan boshlab ko'rgan zararni to'lash.
- 2.11. Olingan kredit miqdorini va foizlarni kelishilgan muddatlarda qaytarilmaganda, qarz oluvchi Bankka kechiktirilgan muddatni har bir kuniga 0,5 %, qaytarilmagan miqdoridan penya to'laydi lekin to'lanmagan miqdorning 50 foizidan oshmasligi lozim.
- 2.12. Berilgan kreditni Bankka qaytarilishi uchun sarf qilingan sud harjatlari, mol-mulkini baxolash, auksion, birja va boshqa qo'shimcha harajatlar qarz oluvchi tomonidan to'lanadi.

3. Bank quyidagi huquqlarga ega.

- 3.1. Kreditlash jarayonida berilgan kreditlarga ta'luqli masalalar yuzasidan buxgalteriya va statistika hisobotlarini olish hamda tahlil qilish (moliyaviy xo'jalik ahvoli, kredit qobiliyati, kreditdan o'rinni foydalanilishi. Ta'minlanganlik va boshqalar).
- 3.2. Shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlar qarz oluvchi tomonidan bajarilmagan taqdirda bank kredit berishdan bosh tortishga xaqli.
- 3.3. Qarz oluvchi kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni buzgan hollarda:
- 3.4. Kredit bo'yicha xisoblangan foizlar 60 kun davomida to'lanmagan taqdirda, bank kreditni muddatidan oldin undirish haqiga ega bo'ladi:
- 3.5. Bankka va Tovar etkazib beruvchilarga to'lovlar muddati 30 kundan ortiq kechikkanda yangi qarzlarni berishini to'xtatish:
- 3.6. Kreditdan noo'rin foydalanilgan, ilgari olingan kredit o'z vaqtida qaytarilmagan, moliyaviy ahvol yomonlashgan (zarar ko'rish, balans nolikvidligi va boshqalar), buxgalteriya hisobi pala-partish yuritilgan, hisob ma'lumotlari noto'g'ri chiqqan, shartnomada ko'zda tutulgan boshqa majburiyatlar buzilgan hollarda kreditni muddatidan oldin undirib olish:
- 3.7. Bunday hollarda Bank qarz oluvchiga qarz undirib olishdan kamida 5 kun oldin bu xaqda xabar beradi. Belgilangan muddatda Qarz oluvchi qarzni qaytarish uchun to'lov topshiriqnomasini taqdim etadi. Uning hisob varag'ida mablag' bor yoki yo'qligidan qa'tiy nazar, bank topshiriqnomani qabul qiladi. Mablag' bo'lmasa, qarz muddati o'tgan qarzlarni xisob varag'iga kiritib qo'yiladi.
- 3.8. Qarz oluvchi da'vo tug'riligini tan olmagan va qarzni qaytarish uchun to'lov topshiriqnomasini taqdim etmagan hollarda bank uzilmagan qarzni muddati o'tgan qarzlarni xisob varag'iga o'tkazadi va u kalendar navbati tartibida undiriladi.
- 3.9. Qarz oluvchi kredit xisobidan 1oy davomida maxsulotni to'liq olishi, agar ushbu muddatda to'liq olinmagan taqdirda olinmagan maxsulot summasidan 20 foiz jarima undirish.
- 3.10. Qarzdorni moliyaviy ahvoli yomonlashganda, hisob raqamiga kelib tushgan mablag'larni muddatli va muddati o'tgan qarzni so'ndirishga yo'naltiriladi.

4. Qarz oluvchining huquqlari.

- 4.1. Mazkur shartnomada aytilgan shartlarda, summalarda va muddatlarda kredit olish.
- 4.2. Kredit shartnomasini o'zgartirish, bekor qilish yoki muddatini uzaytirish tomonlarining qo'shimcha kelishuvi bilan rasmiylashtiriladi. Shartnoma bekor qilinayotganda Qarz oluvchi

bank kreditlari va ulardan foydalanganlik uchun foizlar bo'yicha qarzni muddatidan oldin qaytarish shart.

- 4.3. Kredit bo'yicha qarzni muddatidan oldin qaytarish.
- 4.4. Ushbu shartnoma _____ muddatga tuzilgan bo'lib, amal qilish muddati: «____» (oy) _____yil kredit, kredit foizi, xisoblangan penya va jamg'arma summasi to'liq qaytarilguncha.
- 4.5. Shartnoma to'rt nusxada tuziladi va ularning xar biri yuridik hujjat kuchiga ega.

5. Boshqa shartlar:

- 5.1. Ushbu shartnomani ikki tomonlama bajarilishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida amalga oshiriladi.
- 5.2. Shartnomaga o'zgartirishlar kiritish faqatgina tomonlarni yozma ravshdagi kelishuviga asosan amalga oshiriladi.
- 5.3. Shartnomadagi kelishmovchiliklarni ikki tomon hal qilolmagan taqdirda, kelishmovchiliklar Ho'jalik sudi orqali hal qilinadi.
- 5.4. Shartnomani tomonlar imzolanganidan so'ng Qarz oluvchi tomonidan garov shartnomalari notarial tasdiqlash va Davlar Qadastr idoralari orqali ro'yhatdan otganligi haqida hujjatlarni bankka taqdim qilish majburiyati bajarilgandan so'ng kuchga kiradi. Bu majburiyat 30 kun muddatda bajarilmagan holda mazkur Shartnoma o'z kuchini yo'qotadi.

Bank uchun: _____ «Asaka» bank filiali _____ MFO 00539. Boshqaruvchi: _____ f.i.sh _____ Bosh xisobchi: _____ f.i.sh _____	Qarz oluvchi uchun: « _____ » _____ Manzil: _____ _____ Xisob raqami _____ MFO: _____, INN: _____ « _____ » raxbari: _____ f.i.sh _____ Xisobchi: _____ f.i.sh _____
---	--

Huquqshunos hulosasi:

Ushbu shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, "Ho'jalik yurutuvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq tayyorlangan.

Shartnoma loyihasining shartlari, xususan, taraflarning huquqlari va majburiyatlari, hisob-kitob qilish tartibi, taraflarining javobgarligi, nizolarni hal etish tartibi, fors-major va javobgarlikdan ozod etish masalalari amaldagi qonun hujjatlari talablariga mos keladi.

Huquqshunos: _____ (f.i.sh)